

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

5-son (2020-yil, oktabr)

Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan

Buxoro – 2020

PEDAGOGIK MAHORAT

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2020, № 5

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriynashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 6 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy
Elektron manzil: ped_mahorat@umail.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas'ul kotib: Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich – pedagogika fanlari doktori, dotsent

Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori

Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudov Mels Hasanovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Choriyev Abdushukur Choriyevich, pedagogika fanlari doktori, professor

Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G'arbiy Universitet, Bolgariya)

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor

Jabborov Azim Meyliqulovich, psixologiya fanlari doktori, professor

Sunnatova Ra'no Izzatovna, psixologiya fanlari doktori, professor

Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)

Morogin Vladimir Grigoryevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Xakassiya davlat universiteti, Rossiya)

Belobrikina Olga Alfonsasovna, psixologiya fanlari nomzodi, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti, Rossiya)

Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)

Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Ne'matovna, filologiya fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Axmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisod fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharopovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Otabek Siddiqovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Qosimov Fayzullo Muhammedovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Jumayev Ulug'bek Sattorovich, psixologiya fanlari nomzodi, dotsent

MUNDARIJA

DOLZARB MAVZU	7
Сойиб РАУПОВ. Муस्ताқиллик ва маҳалла институти	7
 PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA	14
Бахтиёр АДIZOV. Талабаларнинг маънавий камолотида ўзини-ўзи тарбиялашнинг ўрни	14
Shahlo TURDIYEVA. Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri: ehtiyoj, zarurat, natija	17
Муножатхон АСПРАНБОЕВА. Нотўлиқ оилаларда болаларни ижтимоий ҳаётга тайёрлашнинг педагогик шарт-шароитлари.....	20
Komila SAYTOVA. Problems of distance education and the ways of their solution.....	27
Темир ОЛИМОВ. Бўлажак олий маълумотли мутахассисларда фуқаролик маданиятини шакллантиришда замонавий ўқитувчининг қиёфаси	33
Фарход ҲОШИМОВ, Роҳатой ЭГАМБЕРДИЕВА. Таълим сифатини ошириш ўзбекистон ривожланишининг асосий омилларидан бири сифатида (Япония мисолида)	36
Замира КУРБАНИЯЗОВА. Бўлажак педагогларнинг ижтимоий компетентлигини ривожлантириш	43
Vahrom URINOV. Ta'limga Yevropa integratsiyasining asosiy maqsadi va tamoyillari	48
Муҳаббат МИРСОЛИЕВА. Олий таълим муассасалари раҳбар кадрларининг метакомпетенцияларини ривожлантириш модели	51
Баҳринисо ТЎРАҚУЛОВА. Инновацион таълим муҳитида техник кафедралар ва ишлаб чиқариш корхоналарининг интегрatív ҳамкорлигини такомиллаштириш технологияси	55
Ilhom MADATOV. Elektron ta'lim texnologiyalari (blended learning).....	58
Насибохон ОЛТМИШЕВА. Глобаллашув жараёнлари ва таълим-тарбия масъулияти	62
Феруза РАМАЗОНОВА. Бўлажак ўқитувчиларда касбий эътиқодни шакллантириш педагогик муаммо сифатида	66
Зебинисо ХАНКЕЛЬДЫЕВА, Дилором УБАЙДУЛЛАЕВА. Модель организации самостоятельной работы студентов с использованием дистанционных технологий.....	69
Олимжон АҲМАДОВ. XIX аср охири - XX аср биринчи чорагида Бухорода таълим-тарбия тизимининг манбавий асослари ва адабиётлар таснифи.....	74
Akram SOKHIBOV, D. A. RUSTAMOV. Historiographical aspects of the study of national pedagogy is the great contribution of the great eastern thinkers	78
Лобар ШАРИПОВА, Башорат ШАРИПОВА. Ўқитувчиларда маънавий-моддий ҳаёт уйғунлигини ривожлантиришда педагогик технологияларнинг аҳамияти.....	81
Нигора САЙФУЛЛАЕВА. Системная целостность образования, науки и производства - основа развития инновационного экономического мышления у студентов	85
Гуллола РАҲМОНОВА. Талабаларда маънавий-ахлоқий компетенцияларни ривожлантириш усуллари ..	90
Manzura OCHILOVA, Nilufar RAXIMOVA. "Oilada yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadryatlarning o'rni" modulini o'qitish samaradorligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari	93
Хулқархон ДЖУМАЕВА. Талабалар маънавиятига салбий таъсир кўрсатувчи ички таҳдидлар ва уларнинг оқибатлари.....	96
Зебо МАМАРАИМОВА. Ёшларни оилавий ҳаётга тайёрлашнинг ўзига хос хусусиятлари	100
Gulchehra ALIMOVA. Kichik maktab yoshida o'quvchi shaxsining psixologik-pedagogik rivojlanish xususiyatlari.....	103
Наира ОДИЛОВА. "Хотира" мавзусини ўқитишда инновацион технологиялардан фойдаланишнинг психологик хусусиятлари	108
Навбахор УМАРОВА. Тасаввур-белгилар тизими – шахс иқтисодий мавқеини баҳолашдаги мезон сифатида	112
Умида ЛАТИПОВА. Талаба шахсида ижодий фаоллик намоён бўлишининг ички ва ташқи мотивлари. 116	
 МАКТАВГАСНА VA BOSHLANG'ICH TA'LIM	119
Юлдуз ПЎЛОТОВА. Бошланғич синф она тили ва ўқиш дарсларини интеграциялашнинг методик имкониятлари.....	119
O'g'iljon OLLOQOVA. Lingvistik kompetensiya va uning turlari	126
Rustambek QO'LDOSHEV. The content of pedagogical assistance in the period of adaptation of left-handed first-graders to school, adaptation to school and its features among students of the first year of study.....	132
Гулшан МАМАТОВА. Бошланғич синф ўқиш дарсларида муаммоли таълим усулларида фойдаланиш 136	
 FILOLOGIYA VA TILLARNI O'RGANISH.....	139
Nigora MAHMUDOVA. So'z modelidagi sintagmaning lingvistik tabiati	139
Атоулло АХМЕДОВ. Ўзбек ва татар тиллари сабоқларидан.....	143

Комилжон АБДУЛЛАЕВ. Адабиёт тўғараги машғулотларида фанлар интеграцияси технологияларидан фойдаланиш.....	147
Dilfuza FAYAZOVA. Adaptation of authentic material.....	151
Гульмира БАШАРОВА. Аналитические методы работы с текстом как дидактическим материалом на занятиях по русскому языку	156
Saule ISHANOVA. Chet tillarni o'rgatishda fonetik mashqlarning roli	161
Мадина МАМЕДОВА. Омонимия как одна из трудностей английского языка.....	166
Б.М. САИДОВ. К изучению русского языка в школах с узбекским языком обучения и передовой опыт учителей двуязычия.....	172
Наталья РОЗИКОВА. Формирование языковой личности под воздействием средств массовой информации.....	176
ANIQ VA TABIIY FANLARNI O'QITISH.....	180
Тўлқин РАСУЛОВ, Зикрулло ҲАМДАМОВ, Муҳайёхон АБДУЛЛАЕВА. Тригонометрик тенгламаларни ечишда арифметик прогрессия хоссаларининг қўлланилиши	180
Алишер ТУРСУНОВ. Физика ўқитишда экологик мазмунда масалалар танлаш ва ечиш восита сифатида	184
Axat AXMEDOV, Elmurod KUDRATOV. Pedagogika oliy o'quv yurtlarida laboratoriya mashg'ulotlarini takomillashtirishning innovatsion usullari.....	188
Xolida TALIBOYEVA, Shoirra USMANOVA. O'quvchilarning bilimlarini tekshirishda pisa testlari va ularning ahamiyatli jihatlari	195
Мурод ХУСЕНОВ, Қулдош ЖУРАЕВ. Создание интерактивный контент в Moodle	198
Гулбахор Худойназарова, С.Ф.Бердиев. Кимё ўқитиш методикаси фанини электрон дарслик асосида ўқитиш методикаси	202
Зулфия БЕРДИЕВА, Баходир МУХАМАДИЕВ. Микробиологический анализ пищевых продуктов.....	206
IQTISODIY TA'LIM VA TURIZM	213
Бобур БОЛТАЕВ. Туризм инфратузилмасини ривожлантириш борасидаги муаммо ва ечимлар.....	213
TASVIRIY SAN'AT VA MUSIQA	216
Абдунаби АМАНУЛЛАЕВ, Сирожиддин КОМОЛДИНОВ. Буюк рангасвирчи мусаввирлар асарлари таҳлили асосида мавзули композиция яратиш	216
JISMONIY MADANIYAT VA SPORT.....	220
Nigora MUXITDINOVA. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertalabki badantariya va uni tashkil etish metodikasi.....	220
Ихтиёр ХОЛИКОВ. Об особенностях кинематики метания диска с места	225
Erkin ESHOV, Mirshod SATTOROV. Features of the emotional intelligence of athletes in individual and team sports.....	228
Dildora YUNUSOVA, Muzaffar TOJIBOYEV. Abu Ali ibn Sinoning ta'lim-tarbiya to'g'risidagi g'oyalarida jismoniy tarbiya masalalarining ilmiy asoslanganligi.....	231
Sherzod MANSUROV, Abdurashid NURULLAYEV. Jismoniy tarbiya darslarida umumiy rivojlantiruvchi mashqlarni me'yorlash.....	233
Abduhamid NURULLAYEV, Javohir JUMAQULOV. Jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlarida o'z-o'zini nazorat qilish.....	235
Mohira GAFUROVA. Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil qilishda ta'lim uslublarining ahamiyati	238
Насиба САБИРОВА, Жўрабек ЮСУПОВ. Мактаб ўқувчилари ҳаётида жисмоний тарбиянинг афзалликлари	240
“Педагогик маҳорат” журнали учун мақолаларни расмийлаштириш талаблари.....	243

LINGVISTIK KOMPETENSIYA VA UNING TURLARI

Mazkur maqolada lingvistik kompetensiyaning turlari va boshlang'ich sinf o'quvchilarida lingvistik kompetentlikni shakllantirish usullari xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: kompetensiya, lingvistik, fonetik, grafik, orfografik, orfoepik, morfologik, sintaktik, punktuatsiya, uslubiy kompetensiya.

В данной статье рассматриваются виды языковой компетенции и способы формирования языковой компетентности у учащихся начальных классов.

Ключевые слова: компетенция, лингвистическая, фонетическая, графическая, орфографическая, орфоэпическая, морфологическая, синтаксическая, пунктуационная компетентности.

This article discusses the types of language competence and ways to form language competence in primary school students.

Keywords: competence, linguistic, phonetic, graphic, spelling, orthoepic competence, morphological, syntactic, punctuation competence.

Sharq qadim-qadimdan o'zining ilm-fan va madaniyati bilan butun dunyo ahlini o'ziga rom qilib kelgan. Azal-azaldan qolib kelayotgan sharqona madaniyat va ilm-ma'rifat asrlar davomida yuksaldi, sayqal topdi. Buning negizi, albatta, farzandlarga berilgan ta'lim va tarbiyaga borib taqaladi. Har bir davlat, jamiyat borki o'zining kelajagini yosh avlodida ko'radi. Farzandlarning kamol topmog'i, jamiyat ravnaqi va osoyishtaligi uchun o'z hissasini qo'shmog'i ularga beriladigan ta'lim va tarbiyaga bog'liq. Ajdodlarimiz komil shaxs obrazini (qiyofasini) yaratishdi, uni hayolotdan reallika aylantirishga harakat qilishdi. Zamonaviy talqinda biz komil shaxs qiyofasida yuksak ta'lim va tarbiyaga ega bo'lgan, yangilik yaratishga intiluvchi, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, boshqalarga o'zining ilg'or fikrlari bilan ta'sir qila oladigan, bir so'z bilan aytganda, har tomonlama mukammal shaxsni tushunamiz. Shaxsning mukammalligi uning amalga oshirgan ishlari va nutqida namoyon bo'ladi.

Go'zal va ravon nutq inson fikr ko'lamining kengligi bilan belgilanadi. Nutq insonga berilgan eng oliy ne'matlarning biri bo'libgina qolmay, u tafakkur mahsuli hamdir. Shuning uchun ham ta'limning ilk bosqichidanoq bolaning og'zaki va yozma nutqini o'stirish har bir fan doirasida asosiy vazifa qilib belgilab olinadi.

Bola nutqining takomillashuvida ona tili ta'limi katta imkoniyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ona tili darslarida bolaning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish parallel ravishda olib boriladi. Fonetik, garfik, orfografik, orfoepik, leksik, grammatik va uslubiy jihatdan to'g'ri tuzilgan og'zaki va yozma nutq ravon va mazmunli bo'ladi. Ravon nutq ta'sirchanligi, tushunarligi, obrazliligi bilan tinglovchiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Bola o'z nutqini ravon, tushunarli va obrazli qilib ifodalashi ularda nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish natijasidir. O'quvchi lingvistik kompetentlikka ega bo'lsa nafaqat ona tili, balki, boshqa fanlarni o'zlashtirishda ham ijtimoiy faol harakat qilib, ijobiy natijalarga erisha oladi.

Nutqiy kompetensiya – o'quvchining notanish matnni ifodali o'qiy olish, o'zgaralar fikrini va matn mazmunini anglash hamda uni og'zaki qayta bayon qila olish, fikrni yozma ravishda izchil ifodalay olish darajasi hisoblanadi [3, 48-bet].

Lingvistik kompetensiyaga “Til tizimi haqida, til birliklarining nutqda ishlash qoidalari to'g'risidagi bilimlarga ega bo'lish, shuningdek, ushbu bilimlar yordamida boshqa odamning fikrlarini anglash va to'g'ri talqin qilish, o'z fikrlarini og'zaki va yozma shaklda ifoda etish qobiliyatidir” [2] - deb ta'rif beriladi.

Lingvistik kompetensiya deganda til sistemasi haqidagi bilimga, lingvistik tafakkurga, yangi til vaziyatlarida bilim va ko'nikmalarini mustaqil qo'llay olish tajribasiga ega bo'lgan xislatlar tushuniladi [3, 49-bet]. Lingvistik kompetensiya o'quvchining ona tili fanining fonetika, leksika, frazeologiya, morfologiya, sintaksis, orfografiya, punktuatsiya, stilistika singari bo'limlari haqidagi bilimlari, bu bilimlardan turli xil vaziyatlarda foydalanish malaka va ko'nikmasidir. Lingvistik kompetensiya o'quvchilarning orfografik, punktuatsion qoidalardan turli vaziyatlarda o'rinli foydalana olish malaka va ko'nikmasini ham o'z ichiga oladi.

Bolada lingvistik kompetentlikning shakllanganligini biz nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qila olishida, fikrini bayon qilish uchun so'z va grammatik vositalarni og'zaki va yozma nutqida tog'ri qo'llay olishi, o'z fikrini izchil bayon qila olishida ko'rishimiz mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda lingvistik kompetensiyalarni bir nechta turlarga ajratamiz mumkin:

- fonetik kompetensiya;
- grafik kompetensiya;
- orfografik kompetensiya;
- orfoepik kompetensiya;
- morfologik kompetensiya;
- sintaktik kompetensiya;
- punktuatsion kompetensiya;
- stilistik (uslubiy) kompetensiya.

Fonetik kompetensiya – nutqdagi tovush va harflarni tanib, to'g'ri va o'rinli qo'llash bilan bog'liq bo'lib, bunda o'quvchi har bir harfni taniy olishi, yozma va bosma, katta va kichik, unli va undosh tovushlarni farqlashi, jarangli va jarangsiz undoshlarni ajrata olishi, unli tovushlarning bo'g'in hosil qilishini bilishi lozim.

Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida fonetik xususiyatga ega bo'lgan topshiriqlar ko'lami ancha keng. Bunday topshiriqlar turli xil shakl va mazmunga ega bo'lib, ularni bajarishda bolalarda kognitiv kompetensiya shakllangan bo'lishi zarur. Masalan 1-sinf ona tili darsligida berilgan 2-mashq [8, 5-bet] o'quvchining til sezgirligini oshirishga, mustaqil fikrlashga, lug'atini boyitishga qaratilgan. Bunda o'quvchilarga *anhor, bahor, hunar, dona* so'zlaridagi bitta tovushini tushurib qoldirib, yangi so'zlar hosil qilish vazifasi beriladi. O'quvchilar har bir so'zdan bittadan tovushni tushurib, *anor, baho, unar, don, ona* so'zlarini hosil qilishadi. Ushbu ko'rinishdagi topshiriqlarni bajartirish orqali o'quvchilarda 1 ta harf bilan farqlanuvchi so'zlar (paronimlar) haqida ham ko'nikmalar shakllantiriladi. 13-mashq[8, 10-bet]da o'quvchilarga nuqtalar o'rniga *a* yoki *o* unlisini qo'yib, so'zlarni to'g'ri yozish vazifasi berilgan. Bolalar topshiriqlarni to'g'ri bajarishlari uchun, avvalo, talaffuzi bir-biriga o'xshash bo'lgan unililarni farqlay olishlari kerak bo'ladi. Tovushlarni farqlash o'quvchilarni to'g'ri talaffuz qildirish orqali o'rgatiladi. 24-mashq [8, 16-bet] esa so'zlarning fonetik tahliliga bag'ishlangan. Topshiriqni bajarish uchun o'quvchilarda unli va undosh tovushlar haqida tushuncha bo'lishi lozim. Ushbu mashqda bolalar *karam, kartoshka, turp, piyoz, sholg'om, sabzi, lavlagi* kabi so'zlarni fonetik jihatdan tahlil qilishadi. Har bir so'zda nechta tovush va harf borligini, ularning nechtasi unli ekanligini va so'zning necha bo'g'indan iboratligini aniqlashadi. 31-mashq[8, 19-bet]da o'quvchilar nuqtalar o'rniga *h* va *x* undoshlaridan mosini qo'yib, so'zlarni to'g'ri yozishlari kerak bo'ladi. 69-mashq[8, 19-bet]da o'quvchilar *muqaddas, sarkarda, Azimjon, onaxon, Chirchiq* so'zlarini bo'g'inga bo'lish va bo'g'in ko'chirish qoidalariga ko'ra bo'g'inlarga ajratib yozishadi va taqqoslashadi. Natijada bolalar bo'g'in ko'chirish qoidalarini o'zlashtirishadi.

Fonetik mazmundagi topshiriqlarni bajarish bolada tilning eng kichik birligi bo'lgan tovush va harflarning imlosi, talaffuzi, so'zdagi vazifasi haqidagi bilimlarini kengaytiradi, ularda fonetik kompetentlikni shakllantiradi.

Grafik kompetensiya – yozma matnni yaratishda ishlatiladigan belgilarni bilish, shuningdek, ularni yozma ravishda tanib tasvirlash qobiliyatini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, yozuv alifbo tamoyiliga asoslanadi. Alifbo tizimida o'quvchilar quyidagilarni bilishi kerak:

- harflar shakli (bosma va qo'lda yozilgan, katta va kichik);
- so'zlarning imlosi;
- belgilar va tinish belgilarning qoidalari va boshqalar [9, 186-bet].

Grafik kompetensiya o'quvchida imloviy savodxonligi va husnixatini shakllantirish bilan bog'liq. Bola tanish va notanish vaziyatlarda so'z, gap va matnlarni eshitib va ko'chirib bexato yoza olsa, unda grafik kompetentlik shakllangan bo'ladi. Savod o'rgatish davridan boshlab o'quvchilar eshitib va ko'chirib yozishga oid topshiriqlarni bajarishadi. Masalan, o'quvchilar yozuv daftariga berilgan so'z va gaplarni namunadagidek aynan ko'chirib yozishadi. Yozuv darslari harf elementlarini yozish bilan boshlanib, kichik matnlarni yozish bilan tugaydi. O'quvchilar dastlab harflarning yozma shaklini ko'chirib yozishni o'rganishadi. O'quv predmeti ona tiliga o'zgargandan keyin esa bosma shaklda berilgan so'z, gap va matnlarni ko'chirib yozadi. Ko'chirib yozish murakkab psixologik jarayon bo'lib, o'quvchilarda bir necha bosqichli fikr operatsiyalari amalga oshadi. O'quvchi, eng avval, sezgi a'zolari yordamida har, so'z va gaplarni sezadi, his qiladi. Ikkinchi jarayonda ko'rganlarini taniydi, har bir simvolga mos bo'lgan nomni eslaydi. Harflarni unli va undoshlarga ajratadi, harflarni bir-biriga bog'lab, bo'g'in hosil qiladi va so'zlarni

yaxlit shaklda o'qiydi. Uchinchi jarayonda bosma shakldagi harflarning yozma shaklini eslaydi. Uchinchi jarayondan keyin o'quvchi ko'chirib yozishga tayyor bo'ladi. Ko'chirib yozishga oid topshiriqlar bolalarni tezkor fikrlab, xulosa chiqarishga, qo'l motorikasini rivojlantirishga yordam beradi.

Eshitib yozish ham xuddi shunday amalga oshadi. Bola ko'rmayotgan mavhum narsani realikka aylantiradi. Eshitgan har bir yaxlit so'zini analiz qiladi, bitta tovushdan iborat bo'lgan kichik qismchalarga ajratadi. Har bir qismga mos bo'lgan belgini eslaydi, yozilishini ko'z o'ngiga keltiradi. Kichik qismlarni yig'ib avval bo'g'in, keyin so'zlarni yozadi. O'quvchilarda grafik malaka shakllangandan keyin u kompetensiyaga aylantiriladi.

Orfografik kompetensiya – talaffuzi va imlosi farq qiladigan so'zlarni to'g'ri yoza olish, bosh harflar va qo'shimchalar imlosi, bo'g'in ko'chirish qoidalari, juft va takror so'zlarning yozilishini bilish bilan xarakterlanadi. Orfografik kompetensiyaga ega shaxs deganda o'quvchining maktab dasturi asosida orfografiya qoidalari bo'yicha egallagan bilimlaridan turli vaziyatlarda o'rinli foydalana olish imkoniyatiga ega shaxs tushuniladi.

Orfografik kompetensiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u grafik, fonetik, morfologik, so'z yasovchi va leksik kompetensiyalar bilan chambarchas shakllantirilishni va takomillashtirishni taqazo etadi.

O'quvchilarda orfografik kompetensiyalarni shakllantirish ishini ikki bosqichda amalga oshirish maqsadga muvofiq. Birinchi bosqich o'quvchilarda imlo (grafik) kompetensiyasini shakllantirish bo'lib, unda yozuvga oid dastlabgi bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi.

Ikkinchi bosqich orfografik kompetensiyalarni takomillashtirish bosqichi bo'lib, unda o'quv materiallarini tizimlashtirish, takrorlash va kengaytirish orqali amalga oshiriladi [1].

Boshlang'ich sinf ona tili darsliklarida ayrim harflarning imlosi, qo'shma, juft va takroriy so'zlarning yozilishi, ayrim qo'shimchalarning imlosini puxta o'zlashtirish va ulardan turli vaziyatlarda o'rinli foydalanish malakasini shakllantirishga oid mashqlar berilgan.

Xususan, 4-sinfda o'quvchilar "Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanishi" [5, 49-bet] mavzusida kelishik qo'shimchalari, ularning gapdagi vazifasi va imlosini o'rganishadi. 4-sinfga qadar o'quvchilar kelishik qo'shimchalarini so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar deb o'rganishadi va gapda so'zlarga mos bo'lgan o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni qo'yishga oid mashqlarni bajarishadi.

Ayrim otlarga kelishik qo'shimchalari qo'shilgan paytda fonetik hodisa kuzatiladi, ya'ni tovush o'zgaradi. O'quvchilar mavzuni o'zlashtirish jarayonida jo'nalish kelishigining turli shakllariga duch keladilar. 151-mashq[5, 63-bet]dagi she'rda *mushukka, hayvon, Nodir, qo'zichoqqa, buzoqqa, xo'rozboyga, otga, itga* kabi so'zlar ajratib ko'rsatilgan. Mashq shartiga ko'ra o'quvchilar ushbu so'zlarga so'roq berib, ularning qaysi kelishikda ekanligini topishlari kerak. Mashqni bajarishda *buzoqqa, mushukka, xo'rozboyga* so'zlari taqqoslanadi va ish-harakatni bildirgan so'z bilan bog'lanadi: *buzoqqa aytdi, mushukka aytdi, xo'rozboyga aytdi*. Har uchala birikmada ham fikr yo'naltirilayapti, mazmun bir xil, biroq jo'nalish kelishigining shakli har xil. O'quvchilar ajratib ko'rsatilgan so'zlarni o'zi bog'langan so'z bilan birgalikda ko'chirib yozishadi. Endigi vazifa nima sababdan jo'nalish kelishigi *-ga, -ka, -qa* shaklida qo'llanganligini aniqlashlari kerak. Bolalarga ajratib ko'rsatilgan so'zlarning asosi toptiriladi va qanday undosh bilan tugaganligi so'raladi. Shundan keyin o'quvchilar jo'nalish kelishigining qanday shaklda qo'shilishi so'z asosining oxirgi undoshiga bog'liq ekanligi haqidagi umumiy xulosaga kelishadi. 154-mashq [5, 65-bet] ham nuqtalar o'rniga *-ga, -ka, -qa* qo'shimchalarning mosini qo'yishga oid bo'lib, endi o'quvchilar topshiriqni mustaqil bajara oladilar.

O'quvchilarning imlo salohiyatini oshirish jarayonida qoidalar, imlo lug'ati, mashqlar va tizimli topshiriqlardan foydalanish ijobiy natijaga erishishni ta'minlaydi.

Orfoepik kompetensiya – so'zning grafik shaklini to'g'ri o'qish qobiliyatidan iborat.

O'quvchilar ko'p hollarda mashqda berilgan matnni ovoz chiqarib o'qishlari yoki faqat ajratib ko'rsatilgan so'zlarni aytishlari kerak bo'ladi. Mazkur jarayonda o'quvchilar so'zlarning grafik shakli bo'yicha to'g'ri o'qiy olish malakasiga ega bo'lishlari lozim. Buning uchun ular quyidagilarni bilishi kerak:

- imlo qoidalarini;
- lug'atdan foydalana olishni;
- tinish belgilarini matnning artikulyatsiyasi va intonatsiyasi bilan o'zaro bog'lashni [1].

O'zbek tilidagi ayrim so'zlarning talaffuzi va imlosi farq qiladi. Masalan, *daraxt, do'st, go'sht* so'zlarini talaffuz qilganda oxirgi tovush aytilmaydi. *Darax, do's, go'sh* shaklida talaffuz qilinadi. *Kitob, maqsad* kabi so'zlarda esa so'z oxiridagi jarangli undoshlar jarangsiz jufti bilan almashtirilib, *kitop, maqsat* holida talaffuz qilinadi. O'quvchilar bunday so'zlarni to'g'ri yozishlari uchun so'zlarga qo'shimchalar(xususan, egalik)ni qo'shib talaffuz qilib ko'rish kerakligini bilishlari lozim. 3-sinf ona tili darsligidagi 51-mashq[4, 41-bet] aynan shu muammoni hal qilishga qaratilgan. *Maktab – maktabi, odob –*

odobi, ijod – ijodi, javob – javobi, zarb – zarbi, atrof – atrofi soʻzlarini juftlab oʻqiydilar va yozadilar. Aytinishi va yozilishida farq qiladigan undoshlarni topib ostiga chizadilar.

Baʼzan oʻquvchilar soʻz va gaplarni oʻqiyotgan xatoga yoʻl qoʻyishadi. Ularning ayrimlari soʻzdagi tovushni tushurib qoldirsa, ayrimlari boshqa tovush bilan almashtiradi yoki qoʻshishadi. Ona tili darsliklarida berilgan mashqlar shartini va matnlarni ifodali, obrazli qilib oʻqish bolalarda bunday kamchiliklarni bartaraf etishga va ularda orfoepik kompetentlikning takomillashishiga yordam beradi.

Ogʻzaki nutqda soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qilish ifodalanayotgan fikrning aniq, tushunarli, mazmunli va obrazli boʻlishini taʼminlaydi. Ogʻzaki nutq yozma nutqqa koʻchgan paytda orfoepik meʼyorlarga rioya qilinmasa orfografik xatoliklar kelib chiqadi.

Morfologik kompetensiya – bu grammatika boʻlimining bir qismi boʻlgan va til tizimining bir qismini tashkil etadigan morfologiya tomonidan olingan bilim va koʻnikmalarni qoʻllash qobiliyati [7].

Morfologik kompetensiya oʻquvchilarda shakllanadigan soʻz turkumlari, ularning maʼno xususiyatlari, imlosi, gapdagi vazifasiga oid koʻnikma va malakalar yigʻindisidir.

Boshlangʻich taʼlim oʻquv dasturida barcha oʻquv fanlarini, shu jumladan ona tilini toʻliq qamrab oladi. Morfologiya oʻzbek tilining boshlangʻich sinflarda maktabda oʻqitiladigan boʻlimlaridan biri. Oʻquv maqsadlarining oʻzgarishi va Davlat taʼlim standartining ona tilidagi taʼlim dasturini oʻzlashtirish natijalariga nisbatan yangi talablarning paydo boʻlishi, shuningdek, oʻqituvchilarning ilgʻor tajribasiga erishish, boshlangʻich sinfda morfologiyaga oid tushunchalar oʻrganiladigan darslarning mazmuni, rejalashtirish va tashkil etilishiga doimiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Kichik yoshdagi maktab oʻquvchilarida morfologik kompetensiyalarni takomillashtirishda ona tili darslarida tilni tahlil qilish, qurish, mashqlar bilan ishlash kabi usullardan foydalanish yaxshi samara beradi.

Ona tili darslarida boshlangʻich sinf oʻquvchilarining morfologik kompetensiyasini shakllantirish – maxsus morfologik mashqlar yordamida amalga oshiriladi.

Morfologik mashqlar bolalarning morfologiya boʻyicha olgan bilimlarini mustahkamlaydi hamda imlo va punktuatsiya boʻyicha koʻnikma va qobiliyatlarini shakllantirish uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Darslarda quyidagi morfologik mashqlardan foydalanish mumkin:

- morfologik tahlil;
- soʻzni toʻliq yoki qisman morfologik tahlil qilish;
- soʻzni belgilangan shaklda yozish;
- nutqda soʻralgan soʻz turkumlariga oid soʻzlarni topish;
- soʻz turkumlari yordamida soʻz birikmalari tuzish;
- nutqning turli qismlariga mansub omonim (shakldosh) soʻzlarni farqlash;
- berilgan jadval asosida soʻzlarni guruhlariga ajratish;
- gapda bajaradigan vazifasini aniqlash [7].

Boshlangʻich sinf ona tili darsliklarida bunday koʻrinishdagi topshiriqlar oʻz ifodasini topgan.

Morfologik xususiyatga ega boʻlgan mashqlarni bajartirish orqali bolalarda morfologik kompetensiya shakllantiriladi.

Sintaktik kompetensiya – bu ogʻzaki va yozma nutqni grammatik jihatdan toʻgʻrilash, tilning grammatik elementlarini bilish va ularni nutqda ishlatish qobiliyati. Soʻz birikmasi, gap, gapning ifoda maqsadiga koʻra turlari, bosh va ikkinchi darajali boʻlaklar, matn kabi tushunchalar tilshunoslikning sintaksis boʻlimiga tegishli boʻlib, ushbu tushunchalarning oʻzlashtirilishi bolada sintaktik kompetentlikni shakllantiradi.

1-sinfdan boshlab sintaktik birlik hisoblangan gap ustida ish olib boriladi. Ular matnning gaplardan, gaplar esa soʻzlardan tuzilishini, gap oxirida ovoz pasayishini va tinish belgi qoʻyilishini oʻrganadilar. Masalan, 160-mashq[8, 90-bet]da oʻquvchilar berilgan matn nechta gapdan iborat ekanligini topadilar. Soʻngra birinchi va toʻrtinchi gaplar kim va nima haqida ekanligini aniqlaydilar. Ular bitta mashq jarayonida gapning chegarasini aniqlashni va ona tili taʼlimining keyingi bosqichlarida gap boʻlaklarini oʻrganishga tayyorlanadilar.

Boshlangʻich sinf ona tili darslarida quyidagi mazmundagi sintaktik topshiriqlar berilgan:

- matndagi nechta gapdan iborat ekanligini topishga doir (1-sinf 156-157-mashqlar);
- ohangga qarab gap chegarasini va oxiridagi tinish belgisini qoʻyishga oid (1-sinf 164-, 173-mashqlar, 4-sinf 318-mashq);
- ifoda maqsadiga koʻra gapning turlarini aniqlash va mos tinish belgilarini qoʻyishga doir (3-sinf 96-mashq);
- aralash berilgan soʻzlardan gaplar tuzishga oid (2-sinf 282-mashq; 3-sinf 71-mashq);
- gapning asosini topishga doir (2-sinf 268-, 278-mashqlar);
- gaplarni sintaktik tahlil qilishga doir (3-sinf 118-, 129-mashq);

- gapda soʻzlarning oʻzaro bogʻlanishini topishga doir (2-sinf 281-, 284-mashqlar; 4-sinf 333-mashq);
- ogʻzaki va yozma nutqni rivojlantirishga oid (2-sinf 296-mashq);
- berilgan matnni tahlil qilish va qismlarga ajratishga oid (2-sinf 298-300-mashqlar);
- berilgan chizmaga mos gaplar tuzishga doir (3-sinf 134-mashq; 4-sinf 330-mashq);
- soʻz birikmalari tuzishga doir (3-sinf, 139-mashq);
- rasm asosida matn tuzishga oid (4-sinf, 324-mashq);
- aralash berilgan gaplardan matn tuzishga doir (4-sinf, 346-mashq).

Ushbu koʻrinishdagi mashqlarni bajarish orqali oʻquvchilar sintaktik birliklar va ularning xususiyatlari bilan tanishadilar. Sintaktik koʻrinishdagi mashqlarni berilgan shartiga qarab toʻgʻri va aniq bajara olishlari ularda sintaktik kompetentlik shakllanganligidan dalolat beradi.

Puntuatsion kompetensiya - lingvistik kompetentlikning tarkibiy qismi boʻlib, oʻquvchining tinish belgilari haqidagi bilimi va undan muayyan nutq vaziyatida oʻrinli foydalana olish imkoniyati sanaladi. Fikrni toʻgʻri va aniq ifodalashda puntuatsion malaka va koʻnikma katta ahamiyatga ega. Masalan, “Yaxshi kitob oʻqi” gapi bir necha xil mazmunni ifodalashi mumkin. Gapda tinish belgi ishlatilmasa fikr qaratilgan shaxs birorta yaxshi kitob oʻqishi kerakligi aytiladi. “Yaxshi, kitob oʻqi” gapida mazmun oʻzgaradi. Endi fikr qaratilgan shaxsga buyruq berilayapti. Shaxs maʼlum bir ish-harakatni bajarib, ijobiy natijaga erishdi. Endi u kitob oʻqishi kerakligi haqidagi buyruqni bajarishi lozim. “Yaxshi kitob, oʻqi” gapida esa fikr qaratilgan shaxsga aniq bir kitob tavsiya qilinayapti. Kitobning yaxshi ekanligi haqida axborot berilayapti. Har uchala gapda ham harakatni bajaruvchi shaxs oʻqish harakatini bajarishi kerak. Lekin birinchi gapda u nomaʼlum boʻlgan qandaydir bir yaxshi kitobni oʻqishi kerak boʻlsa, ikkinchi gapda unga berilgan buyruq asosida oʻqishi kerak, uchinchi gapda esa aniq bir kitob haqida kimningdir tavsiyasini inobatga olib oʻqishi kerak.

Gapni tashkil etgan soʻzlar bir xil boʻlgani holda, bitta vergul gapning sintaktik tuzilishini ham, mazmuniy tuzilishini ham oʻzgartirib yubormoqda. Ularni yozuvda toʻgʻri ifodalashga shaxsning puntuatsion koʻnikmasi xizmat qilmoqda.

Boshlangʻich sinf ona tili kursida tinish belgilari alohida yangi bilim sifatida oʻrgatilmasada, lekin amaliy ish usullari yordamida savod oʻrgatish davridan boshlab oʻrgatiladi. Tinish belgilari bevosita talaffuz (intonatsiya) bilan bogʻliq ravishda oʻrgatiladi. Oʻqituvchi berilgan matnni oʻqiyotgan paytda jumlaning muayyan qismida ovozi koʻtaradi yoki pasaytiradi, jumlar orasida toʻxtalish qiladi. Oʻqituvchi nima sababdan bunday qilayotganini izohlaydi. Puntuatsion kompetensiya sintaktik va morfologik kompetensiya bilan birgalikda shakllantiriladi. Buning isboti sifatida 1-sinf ona tili darsligidagi 161-mashq[8, 91-bet]ni tahlil qilaylik.

Chiziqlar oʻrniga tushirib qoldirilgan soʻzlarni qoʻyib, matnni koʻchiring. Gaplar oxiriga tegishli tinish belgisini qoʻying.

Yordamchi qiz

Mening _____ yaxshi pazanda Onam jizzali _____ yopadi Onam _____ taomlar pishiradi
Onam tayyorlagan lagʻmon, manti, norin menga _____ Men doim onamga _____

Foydalanish uchun soʻzlar: onam, nonlar, mazali, yoqadi, yordamlashaman.

Oʻquvchilar matnda berilgan gaplarda tushib qoldirilgan soʻzlarni topishadi. Bu ularda morfologik kompetensiyani rivojlantiradi. Gaplarning chegarasini aniqlash ularda sintaktik kompetensiyaning shakllanishiga yordam beradi. Gap mazmuniga mos boʻlgan tinish belgini topib qoʻyish esa bolalarning puntuatsion kompetensiyalarni egallashlariga xizmat qiladi.

Uslubiy kompetensiya - ijtimoiy-madaniy kompetensiya boʻlib, adabiy, ilmiy, rasmiy til va shevalarni farqlash, shuningdek, ogʻzaki yoki yozma muloqot jarayonida ularni ishlatish qobiliyati.

Oʻzbek adabiy tilining stilistika boʻlimida beshta nutq uslubi oʻrganiladi va ularning har biri oʻziga xos xususiyatga ega. Har bir nutq uslubi turli xil sohalar doirasida qoʻllaniladi.

Boshlangʻich sinf ona tili darsliklaridagi berilgan matnlarni tahlil qilsak, ular turli mazmun va shaklga ega ekanligini koʻramiz. Qoʻllanilgan nutq uslublari ham turli xil.

Soʻzlashuv uslubi - keng qoʻllanadigan uslublardan biri boʻlib, bunda koʻpincha adabiy til meʼyorlariga rioya qilinadi. Soʻzlashuv uslubidagi nutq koʻpincha dialogik shaklda boʻladi. Darsliklarda berilgan soʻzlashuv uslubiga xos boʻlgan matnlar bolalarda oʻzaro muloqot madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ilmiy uslub fan va texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklarga xos boʻlgan uslub. Ilmiy uslub aniq maʼlumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qoidalar, taʼriflar)ga boy boʻlishi bilan boshqa uslublardan farq qiladi. 1-sinf darsligida berilgan “Doʻlana”, “Jibljibon”, “Tulki” [8, 38-, 41-, 105-betlar] matnlari, 2-sinf darsligining 261-mashq[6, 114-bet]ida berilgan “Oʻzbekiston qizil kitobi” va 3-sinfning 37-mashq[4,16-bet]idagi “Alisher Navoiy” matnlari ilmiy uslubga xos boʻlib, ularda atamalarning izohi va tarixiy maʼlumotlar keltirilgan.

Rasmiy-idoraviy uslub - davlat idoralari tomonidan chiqariladigan qarorlar, qonunlar, nizomlar, xalqaro hujjatlar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Ariza, tilxat, ma'lumotnoma, chaqiruv qog'ozi, taklifnoma, shartnoma, tarjimai hol, e'lon, tavsifnoma, dalolatnoma, hisobot kabilar ham shu uslubda yoziladi.

2-sinfda o'quvchilar 193-mashq[6, 83-bet]ni bajarish orqali tarjimai hol yozishni o'rganishadi.

Ommabop (publitsistik) uslub - tashviqot-targ'ibot ishlarni olib borishda qo'llanadigan uslub, ya'ni matbuot uslubi, ommabop uslub hisoblanadi. Bu uslubda ijtimoiy-siyosiy so'zlar ko'p qo'llanadi.

2-sinfidagi 179-mashq[6, 77-bet]da berilgan matn publitsistik uslubga xos bo'lib, unda yurtimizda sport sohasiga qaratilayotgan e'tibor va yosh sportchilarning erishgan yutuqlari bayon qilingan. Bundan tashqari "Toshkent" (3-sinf, 48-mashq) va "Ustoz va murabbiy" (3-sinf, 55-mashq) "Yog'och o'ymakorligi" (4-sinf, 47-mashq) haqidagi matnlar ham publitsistik uslubga xosdir.

Badiiy uslub – she'r, ertak, hikoya, roman, qissa va shu kabilarga xos bo'lgan uslub. Darsliklarda juda ko'plab hikoya va she'rlar berilgan bo'lib, bular badiiy nutqqa xos matnlardir.

Boshlang'ich sinfda o'quvchilarda nutq uslublari haqidagi ilk tasavvurlar shakllantiriladi. Xususan 2-sinfda o'quvchilar 167-mashq[6, 71-bet]ni bajaradilar. Mashqda 4 ta gap va maqol berilgan bo'lib, qavs ichida gapga mos bo'lgan so'zdan mosini tanlab qo'yishlari kerak bo'ladi. Masalan:

Daraxt (bargi, yaprog'i) bilan ko'rkam, odam (ishi, mehnati) bilan ko'rkam.

Qavs ichida berilgan so'zlar dan mosini qo'yish gap mazmuniga bog'liq. Berilgan gap maqol bo'lib, u badiiy uslubga xos. Shuning uchun ham tanlanadigan so'z badiiy uslubda ishlatiladigan bo'lishi erak. Yaprog va mehnat so'zlarning ta'sirchanligi yuqori bo'lganligi va maqol mazmunini yaqqolroq ochib bergabligi sababli ushbu so'zlar tanlanadi. Qolgan 3 ta gap ham shunday tahlil qilinadi va bajariladi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, o'quvchida lingvistik kompetensiyalarni yo'nalishlarga bo'lgan holda va o'zaro bog'lab shakllantirish natijaviylikni orttiradi. O'quvchida yuqorida sanab o'tilgan lingvistik kompetensiya elementlarini tarkib toptirish ikkinchi bir turini talab qiladi. Har bir mashqni bajartirish jarayonida uzviylikni ta'minlash, bolaning lingvistik tushunchalarni oson o'rganishiga va ulardan nutqida o'rinli foydalana olishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Алексеева, Н. А. Совершенствование орфографической компетенции иностранных студентов-нефилологов на основе учебного словаря-справочника (авторефератов). - Санкт Петербург: 2008
2. Энциклопедическ [Электронный ресурс]. - Режим доступа: http://psychology_pedagogy.academic.ru/ (дата обращения: 20.05.2016)
3. Eraliyeva D.O. Ta'limda til kompetentligini shakllantirish rivojlantirish. – Namangan: 2019. -97 b.
4. Fuzailov S., Xudoyberganova M, Yo'ldosheva Sh. Ona tili (3-sinf darsligi). – T.: "O'qituvchi", 2019. -152 b.
5. Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili (4-sinf darsligi). – T.: "O'qituvchi", 2020. -161 b.
6. Qosimova K., Fuzailov S., Ne'matova A. Ona tili (2-sinf darsligi). – T.: "Cho'lpon", 2018. -144 b.
7. Синицына Ю.А. Формирование морфологической компетенции младших школьников на уроках русского языка.- Челябинск, 2016
8. G'afforova T., Shodmonov E., G'ulomova X. Ona tili (1-sinf darsligi). – T.: "Sharq", 2019. -112 b.
9. Шестакова Е. В. Особенности формирования языковой компетенции у иностранных военнослужащих. Вестник Челябинского государственного университета. 2015. № 27 (382). Филологические науки. Вып. 98. С. 185-188.

“ПЕДАГОГИК МАҲОРАТ” ЖУРНАЛИ УЧУН МАҚОЛАЛАРНИ
РАСМИЙЛАШТИРИШ ТАЛАБЛАРИ

1. Мақола бошланишида Универсал ўнлик кўрсаткич (ЎУК) берилди.

Куйидагилар алоҳида қатордан бошлаб киритилади:

1) мақола сарлавҳаси (оддий ҳарфларда, масалан: Абдулла Қодирийнинг тасвирлаш маҳорати);

2) муаллиф(лар)нинг фамилияси (тўлиқ), исми ва отаси исмининг бош ҳарфлари;

3) мақоланинг аннотацияси (пробеллар билан бирга 500 белгидан иборат), аннотация курсив билан берилди ва бир қатор ташлаган ҳолда асосий матндан ажратилади;

4) калит сўзлар (5–10 та).

2. Мақола матни “Microsoft Word” дастурида тайёрланиб, “Times New Roman” 14 ўлчамли шрифтда, сатрлар ораси бир интервал, саҳифа четлари чапдан 3 см, юқоридан ва пастдан 2 см, ўнгдан 1,5 см, хатбоши 1,25 см қолдирган ҳолда терилади ва электрон варианты билан (флешка ёки CDда) топширилади.

Мақола матнида бошқа шрифтлардан фойдаланилган тақдирда бундай шрифтлар муаллиф томонидан электрон вариантда таҳририятга тақдим этилиши лозим.

3. Мақоланинг умумий ҳажми (расм, жадвал ва диаграммалар билан биргаликда) 8 саҳифадан кам бўлмаслиги (аннотациялар, калит сўзлар ва адабиётлар рўйхати бу ҳисобга кирмайди) талаб қилинади. Журнал учун энг мақбул ҳажм 8–10 саҳифа оралиғида.

4. Агар мақолага расм, жадвал, диаграмма, схема, чизма, турли график белгилар киритилган бўлса, улар оқ-қора рангларда чизилган бўлиши, аниқ ва равшан тасвирланиши, қисқартмаларнинг тўлиқ изоҳи ёзилиши лозим. Мақолада матнида ранг воситасида маъно фарқлашга хизмат қиладиган расм, чизма ва диаграммаларнинг бўлиши мумкин эмас. Формулалар матнга махсус компьютер дастурларида киритилиши керак.

5. Иктибос олинган ёки фойдаланилган адабиёт сатр ости изоҳи тарзида эмас, балки мақола охирида умумий рўйхатда кўрсатилади. Матн ичидаги кўчирмадан сўнг иктибос олинган асарнинг рўйхатдаги тартиб рақами ва саҳифаси квадрат кавс ичида берилди, масалан: [4. Б. 78]. Фойдаланилган адабиётлар мақола охирида “Адабиётлар” сўзидан кейинматнда ҳавола берилиш тартибига кўра берилди. Бу ўринда китоб, тўплам, монографиялар учун муаллифларнинг исм-фамилиялари, манбанинг тўлиқ номи, нашр кўрсаткичи (шаҳар, нашриёт ва нашр йили) кўрсатилади. Журнал мақолалари ва бошқа даврий нашрлар учун муаллифларнинг исм-фамилиялари, мақола номи, журнал номи, йили ва сони, саҳифа рақами кўрсатилади.

Адабиётлар рўйхати лотин алифбосига транслитерация қилинади.

Мақолага муаллифлар ҳақида маълумот илова қилинади.

Муаллиф(лар) ҳақидаги маълумот куйидагиларни ўз ичига олади:

– муаллиф(лар)нинг фамилияси, исми ва отасининг исми (тўлиқ)

– илмий даражаси (агар бўлса)

– иш жойи, бўлим, вазифаси (қисқартирмаган ҳолда), масалан:

ҚУРОНОВ Дилмурод Ҳайдаралиевич – филология фанлари доктори, Андижон давлат университети ўзбек адабиётшунослиги кафедраси профессори. E-mail: kuronov@rambler.ru

– алоқа учун телефон рақами.

Муаллиф ҳақида инглиз тилидаги маълумотлар куйидагиларни ўз ичига олади:

1) муаллиф(лар)нинг фамилияси, исми ва отаси исмининг инглиз тилидаги варианты, мақола номи ва муаллиф иш жойининг инглиз тилига таржимаси, масалан: *Dilmurod H. Quronov*, Andijan State University (Andijan, Uzbekistan). E-mail: kuronov@rambler.ru

COMPOSITION OF LYRICAL WORK

2) калит сўзларнинг инглиз тилига таржимаси;

Фойдаланилган адабиётларнинг инглиз тилидаги варианты (References) APA-2010 стандарти бўйича тайёрланиши зарур.

1. Китобларни бериш тартиби:

Esin, A.B. (2000) *Printsipy i priyemy analiza literaturnogo proizvedeniya* [Principles and techniques of analyzing literary work]. Moscow: Flinta.


Rakhimzhonov, N. (2012) *Intellektual sheriya tning tabiati* [Nature of intellectual Poetry] In: *Istiqolol va bugungi adabiyot* [Independence and Modern Literature]. Toshkent: Teacher. pp. 145–155.

2. Мақолаларни бериш тартиби:

Suyarov, M. (2008) *Peyzazh she'riyatida kompozitsiya* [Composition in landscape poetry]. *O'zbek tili va adabiyoti* [Uzbek language and literature]. 1. pp. 72–75 (In Uzb.).

3. Интернет манбаларини бериш тартиби:

Belova, E. A., Kilkeeva, Yu. A., & Trenogina, A. A. (2014). *Tendencies of the world market of transportation and logistics services development*. Retrieved from http://pnu.edu.ru/media/ejournal/articles-2014/TGU_5_336.pdf (in Russ.)



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi
“PEDAGOGIK MAHORAT”
ilmiy-nazariy va metodik jurnali
barcha ta’lim muassasalarini
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzilimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 208-xona

Tahririyat rekvizitlari:

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000000100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

BuxDU 400110860064017950100079002

Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!

<p>PEDAGOGIK MAHORAT</p> <p>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</p> <p>2020-yil 5-son (75)</p> <p>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</p> <p>OBUNA INDEKSI: 3070</p>	<p>Buxoro davlat universiteti nashri</p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p>Nashr uchun mas’ul: Alijon HAMROYEV. Musahhih: Muhiddin BAFAYEV. Muharrir: Gulchehra Cho‘liiyeva</p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 28.11.2020 Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.11.2020 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 231 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“Sadriddin Salim Buxoriy” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri M.Iqbol ko‘chasi 11-uy.</p>
---	--	--